

# ARALASH TA'LIM VA UNING AFZALLIKLARI

Akbarov Bahodir

Namangan muhandislik qurilish instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrasи mudiri

**Аннотация.** В статье говорится о выборе наиболее эффективных инновационных методов и технологий в современной системе высшего образования, значении электронного образования в системе высшего образования, концепции смешанного образования и его модели

**Ключевые слова:** смешанное обучение; дистанционное обучение; модель перевёрнутый класс; смена рабочих зон; модель ротация лабораторий; «гибкая» модель

**Abstract.** The article deals with the selection of the most effective innovative methods and technologies in the modern higher education system, the importance of e-learning in the higher education system, the concept of blended learning and its models, the definitions, approaches, opinions and views of a number of local and foreign scientists as well as, the advantages of introducing mixed education in the modern era

**Keywords:** blended learning; distance learning; flipped classroom model; station rotation model; lab rotation model; Flex model.

Elektron texnologiyalarning hozirgi rivojlanish darajasi ta'lrim tizimining innovatsion jarayonlarga intilishi bilan birgalikda oliy ta'lrim muassasalaridagi o'quv jarayonini o'zgartirish va talabalarning mustaqil ta'lrim vaqtini optimallashtirish zarurligini taqozo etmoqda. Zamonaviy oliy ta'lrim tizimida eng samarali innovatsion usullar va texnologiyalarini tanlash muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda. Innovatsion usullar fan va axborot texnologiyalarining zamonaviy yutuqlaridan foydalanishga asoslangan usppardir. Innovatsion usullar, eng avvalo, ta'lrim jarayonini optimallashtirish, o'quv materialini o'zlashtirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan bo'lib, bu pirovardida ta'lrim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ishlab chiqarish qobiliyati bugungi kunda o'qituvchi faoliyatining asosiy malakaviy xarakteristikasiga aylanib bormoqda va o'quv

jarayonini tashkil etishning yuqori darajasiga o‘tishni anglatadi. O‘qitish jarayonidagi innovatsiyalar o‘quv jarayonining turli jihatlariga, jumladan, o‘quv xonalari maydonini tashkil etishni o‘zgartirishga, sinflarni zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlashga, shuningdek, yangi ta’lim texnologiyalarini sinovdan o‘tkazishga ta’sir qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi olimlar va pedagoglarni ta’lim jarayonida ulardan samarali foydalanishning tobora ko‘proq yangi imkoniyatlarini o‘rganishga undaydi. Axborot hajmi va talabalarning mustaqil ishi ulushining ortishi, o‘qituvchi yagona manba bo‘lgan ta’lim jarayoni, shuningdek, talaba bilimning “passiv” obyekti sifatida ko‘rib chiqilishi yangi ta’lim texnologiyalarini izlashni va talabalarga yo‘naltirilgan ta’limga o‘tish zaruratini talab qiladi. Ta’lim jarayonida elektron ta’limni qo‘llash darajasiga qarab, onlayn ta’lim va aralash ta’lim ajratiladi. Onlayn ta’lim (onlayn ta’lim) — internet texnologiyalari asosida o‘quv muhitidan foydalangan holda o‘quv materiallarini mustaqil o‘rganish jarayonini tashkil etish usuli. Aralash ta’lim bu — onlayn ta’limning yuzma-yuz ta’lim bilan uyg‘unligi, an’anaviy shakllarning elektron texnologiyalar bilan integratsiyasidir.

Zamonaviy ta’lim muhitida qo‘llaniladigan aralash ta’lim modelining uchta asosiy komponenti mavjud:

- kunduzgi ta’lim (yuzma-yuz): o‘qituvchi-talabaning sinfdagi an’anaviy formatidir;
- mustaqil ta’lim o‘rganish: talabalarning mustaqil ishlarini o‘z ichiga oladi: resurs xaritasi yordamida materiallarni qidirish, tarmoqni qidirish va h.k.;
- onlayn ta’lim (onlayn hamkorlikda o‘rganish): talabalar va o‘qituvchilarning onlayn ishi, masalan, onlayn konferensiyalar, Skype yoki wiki va boshqalar.

Aralash ta’lim (blended learning) an’anaviy ta’lim texnologiyalari bilan zamonaviy ta’lim texnologiyalarining uyg‘unligidir. Har qanday texnologiyalar singari aralash ta’limnng ham afzalliklari va kamchiliklari mavjud bo’lib, uni qo‘llashdan oldin bu jihatlarni inobatga olish zarur.

Aralash ta’lim (blended learning) ning afzalliklari quyidagilardir:

1. Aralash ta'lim qisqa vaqt ichida kengroq auditoriyani qamrab olishga yordam beradi. Chunki an'anaviy usullardan farqli ravishda, aralash ta'lim professor-o'qituvchining doimo auditoriyada bo'lishini talab qilmaydi. An'anaviy ta'lim auditoriyada bir vaqtning o'zida cheklangan miqdordagi odamlar uchun mo'ljallangan. Ba'zi mavzular nazariyadan ko'ra amaliy mashg'ulotlarni talab qiladi. Bunday xollarda online yoki an'anviy ta'limdan ko'ra amaliy mashg'ulotlar maqsadga muvofiq. O'qituvchi nazariy mashg'ulotlar manbaalarini online platformaga joylab, amaliy qismini talaba mustaqil bajarishi mumkin.

2. Yana bir muhim afzallik shundaki, aralash ta'lim an'anaviy mashg'ulotlarni yanada foydali qilishi mumkin. Talabalar mustaqil ravishda topshiriqlarni bajara olsalar, auditoriyaga har xil bilim darajasi bilan keladi. Talabalar orasida foydali muhokamalar va o'rganganlarini amalda qo'llash uchun ko'proq imkoniyat bo'ladi. Talabalar mustaqil ravishda topshiriqlarni bajarib, o'zlashtirishs o'qituvchi qattiq charchab qolmaydi va shu bilan birgalikda past o'zlashtirayotgan talabalar yoki iqtidorli talabalar bilan ishlashi uchun qo'shimcha vaqt bo'ladi.

3. Ayrim insonlar texnologiyalarni uncha yoqtirmaydi yoki foydalanishga layoqati yo'q, bunday talabalarga yuzma yuz ta'lim olish ma'qul bo'ladi. Aralash ta'lim insonlar orasidagi bu muammoga ham yechimdir.

4. Ba'zi talabalar ko'pchilik bilan o'rganishni xohlamaydi, aytrim talabalar guruh bilan o'zlashtirishni ma'qul ko'radi, aralash ta'lim har ikki xolatda ham imkoniyat yaratadi. Aralash ta'lim qiyinroq mavzularni chuqurroq o'rganishga vaqt beradi va shu bilan birgalikda o'z bilimlarini o'rtoqlashishga sharoit yaratadi.

5. Aralash ta'lim ta'lim harajatlarini kamaytiradi. Vaqtini, auditoriyalarni, o'qituvchilarni va ularga sarflanadigan mablag'ni tejaydi.

6. Aralash ta'lim talabalarni turli qiziqarli topshiriqlar yoki nazorat testlari orqali o'zlashtirish ko'rsatgichlarini yoki fanga qiziqishlarini nazorat qilib borishga imkon beradi.

Aralash ta'lim (blended learning) ning ayrim kamchiliklari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Aralash ta'limga o'tish jarayonida dastlabki bosqichda ish hajmining ko'p bo'lisi. Masalan, online ta'lim resurslarini yaratish, joyash uchun ma'lum bir vaqt sarflanadi, topshiriqlarni, nazorat savollarini puxta o'ylab chiqish zarur bo'ladi, Bu esa dastlabki bosqichda o'qituvchida ish xajmini oshiradi.

2. Aralash ta'limni qanday yo'lga qo'yilganligiga qarab ishtirokchilarda motivatsiya darajasi turlicha bo'lisi mumkin. Talabalarga nazariy materiallarni, mustaqil topshiriqlarni tanlayotganda ularning bilim darajasini hisobga olmaslik aks natija berishi mumkin. Masalan, amaliy ahamiyatga ega mavzularda kompyuter texnologiyalardan ko'p foydalanish unchalik samara bermasligi mumkin. Metodlarni tanlayotganda bunga e'tibor berish zarur.

3. Kompyuter savodxonligi bo'yicha bazaviy bilimlarga ega bo'limgan talabalar uchun bu qiyin yoki zerikarli bo'lisi mumkin. Buning uchun dastlab ularni bu texnologiyalar bo'yicha bilimini oshirishiga ko'maklashish kerak.

4. Online nazoratlarni amalga oshirayotganda ko'chirmachilikni oldini olish qiyinligi. Buni oldini olish uchun antiplagiat tizimlaridan foydalanish mumkin. Testlarning keng bazasini yaratish zarurati va shu bilan birgalikda yuzma yuz teskor savol javoblarni tashkil etish ham mumkin.

Umuman olganda, aralash ta'lim an'anaviy va zamonaviy ta'limning eng yaxshi xususiyatlarini o'zida jamlashga yordam beradi. Hozirda dunyoda juda ko'p oliygohlarda bu texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Shu sababli ham aralash ta'limdan foydalanish samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

## **Adabiyotlar**

1. Allamova Sh. Aralash ta'lim modellari va imkoniyatlari.  
<https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2023/02/aralash-talim-modellari-va-imkoniyatlari.pdf>
2. Абдуллаханова Н.Т. Таълим жараённида мустақил таълимнинг аҳамияти / Ўзбекистонда илм-фан, таълим ва технологияни ривожлантиришнинг долзарб масалалари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари – 2021. - В.56-58.
3. Akbarov B. A. Японияда ўқувчиларни касб-хунарга йўналтиришнинг ўзига хос хусусиятлари // "Халқ таълими" журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 104.

4. Akbarov B. A., Bunyod N. Formation of professional thinking as a prerequisite for the successful activity of a specialist //Conferencea. – 2022. – С. 58-62.
5. Akbarov B. A. Узлуксиз таълим тизимида электрон таълим муҳити ва унинг талаблари// “Узлуксиз таълим тизимида табиий фанлардан электрон ресурсларни яратиш ва уларни тадқиқот қилиш муаммолари ва ечимлари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари. ЎзПФИТИ, - Тошкент. – 2020. –Б. 87-89.
6. Abdurakhmonovich, A. B. (2020). Factors influencing the formation of professional thinking in pupils. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 2020.
7. Akbarov, B. A. (2020). Pedagogical system of formation of professional thinking in secondary school students. *Author. dis.... DcS.*–2020.
8. Temirkhanova, M., & Akbarov, B. (2018). Improvement of the methodology for organizing financial accounting in travel companies. *Bulletin of Science and Practice*, 4(3), 267-273.
9. Abduxamidovna, M. D., & Abdurahmonovich, A. B. (2021). Analysis of the results of psychological and pedagogical research of labor migrants and their families. *Middle European Scientific Bulletin*, 12, 440-443.
10. Akbarov, B. A. (2019). Forming Pupils' Professional Thinking Model. *Eastern European Scientific Journal*, (1)
11. Akbarov, B. (2022). ACTUAL PROBLEMS OF TRAINING MODERN PEDAGOGUES. *Экономика и социум*, (9 (100)), 25-27.
12. БА Акбаров. Таълим-тарбия жараёнлари сифат ва самарадорлигини оширишда замонавий ахборот коммуникацион технологияларининг ўрни. ЎзПФИТИ, Тошкент: 2020.89-916
13. БА Акбаров. Узлуксиз таълим тизимида электрон таълим муҳити ва унинг талаблари. ЎзПФИТИ, Тошкент: 2020.87-89б
14. ВА Akbarov, Ўқувчиларни касб-ҳунарга йўналтиришда фаол таълим методларидан фойдаланиш. “Узлуксиз таълим” журнали 1 (№ 5), 84-89
15. ВА Akbarov. Ўқувчиларни касб-ҳунарга самарали йўналтириш орқали умумий ўрта ва ўрта маҳсус, касб-ҳунар таълими узвийлигини таъминлаш механизми, “Узлуксиз таълим” журнали 1 (№ 6), 89-94
16. ВА Akbarov, Кластер тизими умумий ўрта таълим мактаби ўқувчиларида касбий тафаккурни шакллантиришнинг асосий омили сифатида. “Халқ таълими” журнали 1 (№ 4), 104-111
17. ВА Akbarov, Ўқувчиларда касбий тафаккурни шакллантириш модели. “Халқ таълими” журнали, 33-38.